

TUXUM YO'NALISHIDAGI LEGGORN TOVUQ ZOTLAR OZIQA RATSIONINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

I.R. Xolbo'tayev

SamVMI Toshkent filiali magistranti

G.D. Anarbayeva, R.B. Abduraximov, M.Q. Durdiboyeva

SamVMI Toshkent filiali talabalari

ANNOTATSIYA

Respublikamizda parrandachilikka qaratilayotgan keng imkoniyatlardan to'g'ri foydalangan holda yurtimizda parrandachilikni rivojlantirish tovuqlarning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, ularning mahsuldorligini oshirish, tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning ozuqasini to'g'ri yo'lga qoygan holda tuxum yo'nalishidagi tovuqlardan yanada ko'proq tuxum olish.

Kalit so'zlar: Kross, tovuq, kurka, o'rdak, g'oz, bedana, tuxum, zot, oqsil, omuxta yem, uglevod, subsidiya.

ПРАВИЛЬНЫЙ УХОД ЗА ЯЙЦЕНОСНЫМИ ЦЫПЛЯТАМИ ЛЕГГОРН

АННОТАЦИЯ

Развитие птицеводства в нашей стране при правильном использовании огромных возможностей птицеводства в стране. Значение кур в сельском хозяйстве заключается в повышении их продуктивности.

Ключевые слова: кросс, курица, индейка, утка, гусь, перепел, яйцо, порода, белок, комбикорм, углевод, дотация.

PROPER MANAGEMENT OF EGG-LAYING LEGGORN CHICKENS

ABSTRACT

Development of poultry farming in our country with the correct use of the vast opportunities for poultry farming in the country. The importance of chickens in agriculture is to increase their productivity.

Keywords: cross, chicken, turkey, duck, goose, quail, egg, breed, protein, feed, carbohydrate, subsidy.

KIRISH

Parrandachilik- daromadli shu bilan birga ancha nozik soha.Uy parrandalarini yetishtirish chorvachilikning asosiy bir tarmog'i hisoblanib parrandachilikning asosiy mahsuloti oziq- ovqatga ishlatiladigan tuxum va go'sht, qo'shimcha mahsuloti –

parranda pati va paridir. Parrandalarni soʻyish va uni qayta ishlash chiqindilaridan yem uni ishlab chiqariladi. Parranda goʻngi- qimmatli organik oʻgʻit hisoblanib bundan 4ming yil muqaddam Hindistonda dastlab tovuqlar xonakilashtirilgan va keyinchalik parrandalarning boshqa turlari ham xonakilashtirila boshlagan. Oʻzbekistonda 1920-yillarning oxiriga qadar parranda, asosan jaydari kammahsul tovuq zotlari faqat xonadonlarda boqilgan. Respublikada parrandachilikning qishloq xoʻjaligi tarmogʻi tarzida rivojlanishi 20-asrning 20-yillariga toʻgʻri keladi. Bu soha hozirgi kunga kelib chorvachilikdagi asosiy yoʻnalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Bunig sababi-parranda boqish kata xarajat talab qilmaydi, saqlash inshaotlari juda oddiy.

Yurtimizda parrandachilika yana katta eʼtibor qaratila boshladi Prezident Shavkat Mirziyoyev “Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” qarorini imzoladi. Unga koʻra, 2021-yil 1-iyundan boshlab qoʻshilgan qiymat soligʻi toʻlovchisi boʻlgan parrandachilik xoʻjaliklariga — oʻz xoʻjaliklarida yetishtirilib, realizatsiya qilingan tuxumning har bir donasi uchun 50 soʻm hamda parranda goʻshtining har bir kilogrammi uchun 1 000 soʻm miqdorida respublika byudjetidan subsidiya ajratiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tovuqchilik-parrandachilikning nafaqat qishloq xoʻjaligida, balki uy parrandalarni koʻpytirish bilan shugʻullanuvchi aholi oʻrtasida keng tarqalgan asosiy tarmogʻi hisoblanadi. Aholining yordamchi xoʻjaliklaridagi uy parrandalarining umumiy miqdorining 80 foiznini tovuq tashkil etadi. Beradigan mahsulotiga qarab, tovuqlar tuxumdor (serpusht), tuxumdorgoʻshtdor (tuxumgoʻsht uchun boqiladigan) va goʻshtdor zotlarga ajratiladi. Shuningdek, Tovuqlarning dakang (urishqoq) va kurkam turlari (sanoat ahamiyati yoʻq) ham bor. Tovuqlar tashqi koʻrinishi va tuzilishi bilan ham bir-biridan farq qiladi. Serpusht Tovuqlar kichkina, tez voyaga yetadigan, tuxumdorgoʻshtdor Tovuqlar yirikroq boʻlib yaxshi rivojlanadi. Goʻsht uchun ajratilganlari alohida sharoitda boqiladi. Serpusht Tovuqlar 1,7-2,2 kg , xoʻrozlari 2,7-3,0 kg , tuxumdorgoʻshtdori 2,5-4,0 kg , goʻshtdori 3,0-4,5 kg goʻsht beradi. Serpusht zotlar yiliga 220-250 ta, ayrimlari 365 tagacha tuxum qiladi. Zotdor Tovuqlar seleksiya yoʻli bilan koʻpaytirilganda serpusht boʻladi. Tovuq 5-6 oylikdan tuxumga kiradi. Dastlabki tuxumi 40-50 g , 1 yoshga yaqinlashgach, 55-65 g . Tuxumdor goʻshtdor zotlar tuxumi mayda. Tovuq tullaganda tuxum qilmaydi. Tullash 2-3 hafta, baʼzilarida 2 oy va undan ortiq davom etadi.

O‘zbekistondagi xo‘jalikda tovuq (tuxum, go‘sh t yo‘nalishlari), go‘sh uchun kurka qisman o‘rdak, g‘oz, parhez taomlar uchun bedana boqiladi. Asosan tovuqning oq leggorn, “Naslparranda” ilmiy markazida yaratilgan ikki tizimli, mahalliy sharoitlarga yaxshi moslashgan, yiliga 240-250 donagacha tuxum qiladigan “O‘zbekiston” krossi yetishtiriladi.

Tovuq mahsulotining qimmatli ularning tez yetilishi va mahsuldorligi bilan uyg‘unligidadur. Tovular 4.50-5 oyda jinsiy yetilib, uxum bera boshlaydi. Tovular tuxumida organizm uchun zarur oziq moddalar yengil hazmlanadigan shakilda na‘moyon bo‘ladi. Ularning tarkibida to‘la qimmatli, har jihatdan tengsiz aminokislotalar, uglevodlar, oqsillar hamda butun bir vitamin majmuosi-20 xil mineral moddalar mavjud. Yuz grammlili tuxumning umumiy to‘yimliliigi 156 kkal ni tashkil etadi.



Leggorn-eng ko‘p tarqalgan tuxum beruvchi zotlardan biri. Uning kelib chiqishi Italiyaning Livarno shahri bilan bog‘liq bo‘lib “leggorn” nomini lishiga sabab bo‘lgan



Tovuqlarning vazni 1.8-2 kg, xo‘rozlarniki 2.5 2.7 kg ga teng.

Bu krosslar 125-135 kunligidayoq tuxum berishni boshlaydi. Tuxum qo‘yish chog‘ida tovuqlarni oqsilga bo‘lgan ehtiyoji keskin ko‘tariladi tuxumdan qolganda esa uni oqsilga bo‘lgan talabi keskin pasayadi, yog‘lar parranda organizimida issiqlik va mexanik energiyani hosil qilishda foydalaniladi shuni hisobga olgan olda parrandalar ozuqasini to‘g‘ri ratsionlar orqali yaratish kerak. Tuxum beradigan tovuqlar sutkasiga 115-125g omuxta yem (kambikorm) istemol qiladi. Yeyilgan ozuqa hajmi ozuqani to‘la qimmatligiga bog‘liq. Ozuqani to‘yimliliigi qancha past

bo'lsa shuncha ko'p ozuqa yeyiladi. Uy sharoitida boqilgan tovuqlarning yegan ozuqasining umumiy hajmi birmuncha ko'p bo'ladi, bu ularning sayrda ko'p bo'lishiga bog'liq.

Kambiko'rm maydalangan ozuqa vositalari va mikroqo'shimchalar aralashmasidan iborat bo'lib, parrandani to'la qimmatli ozuqlantirish imkonini beradi. Ular sochiladigan, donlab yoki yorma shaklida tayyorlanadi. Donlab tayyorlanganda biologik faol moddalar yaxshi saqlanib qoladi, parrandalar esa alohida birikmalarni tanlab yeyish imkonidan mahrum bo'ladilar, demak ozuqaning butun tarkibiy qismi bilan iste'mol qilishlariga to'g'ri keladi. Maydalangan donni bazi namlangan non mahsulotlari qoldig'i aralashmalari bilan almashtirish mumkin. Kambikorm retsep bo'yicha bacha yoshli guruhlariga va ularning fizologik xolatiga qarab turli miqdorlarda bo'ladi.

7-10 oylik tovuqlar uchun to'la ratsionli kambikormning taxminiy tarkibi 1000 kg % foizda

Kambikorm tarkibi	Saqlanishi %
Makkajo'xori	32
Bug'doy	26
Soya shroti	16
Kungaboqar shroti	12
Baliq uni	4
Megamiks	0.15
Metionin	0.11
Lizin	0.1
O'simlik yog'	2.5
Triksiyfosfat	6.64
Tuz	0.5

7-10 oylik tovuqlar uchun kambikormni taxmiman 1000 kilogrammi 100% deb qaralsa, ozuqa tarkibida megamiks 0.15, metionin 0.11, lizin 0.1, triksiyfosfat 6.64 miqdorda bo'lishi lozim.

Tovuqlar mahsulot bera boshlagan davrda to'g'ri oziqlantirish va parvarishlash tuxum berishni jadallashtirishga sabab bo'ladi va ularga yorug'lik bilan rag'bat berib turiladi. Shuning uchun yorug' kun uzoq davom etiladigan paytlarda ishga oqilona foydalanish va tavsiya etilgan normalarga rioya qilish mahsuldorlikni sezilarli darajada oshishiga imkon yaratadi.

XULOSA

Qishloq xo'jaligida tuxum yo'nalishidagi tovuq zotlari mahsulot bera boshlagan davrda to'g'ri oziqlantirish va parvarishlashni yo'lga qoyilsa, ularning tuxumga kirgan davrida oqsilga bo'lgan ehtiyojini to'g'ri baholab ozuqa ratsioni to'g'ri yaratilsa ko'zlagan maqsadga samarali erishiladi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M “Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini yaratish” to'g'risidagi qarori.
2. Qoziyev, N.Hashimov, T.Saidazimov “Parrandachilik 7 xazinaning biri”
3. Raxmatillayev P.E Nurmuxammedov X.N. “Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarni parvarishlash qilish” Toshkent 2013- yil
4. Razvedeniye, soderjaniye i kormleniye ptitsi, Per. s nem., 1972; Promishlennoye ptitsevodstvo, M., 1985; Azimov S, Parrandachilikda naslchilik ishlari,
5. <https://uz.yellowbreadshorts.com/1661-rating-of-hens-of-egg-breeds.html>